XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr VII-3-046-1-0-K/24 Andijon viloyati

Andijon viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida” OʻRQ-1011-son Qonuniga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktyabrdagi 01-1239/2-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26819-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni (keyingi oʻrinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Andijon viloyati mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 4 513,1 milliard soʻm va xarajatlari 6 693,1 milliard soʻmga maʼlumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 2 180,0 milliard soʻm, shundan aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 292,0 milliard soʻm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan toʻlanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan toʻlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlari qo‘llanilganda, tuman va shaharlar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lgan taqdirda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni nazarda tutishi mumkin.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 49 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari oʻrtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yigʻimlar;

davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari oʻrtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno) tumanlar va shaharlar budjetlariga oʻtkaziladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning uchinchi, toʻrtinchi va beshinchi qismlarida koʻrsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablagʻlarning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu Qonunga 8-ilovaning 1-bandida belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga nisbatan tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qoʻllashga haqli. Bu holda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan ushbu koeffitsiyentdan Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida yer soligʻini hisob-kitob qilish maqsadlari uchun belgilangan zonalar kesimida foydalaniladi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha oʻsib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqli.

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari boʻyicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan boʻlsa:

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari respublika budjetiga oʻtkaziladi;

mahalliy budjetlarga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga oʻtkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki notoʻgʻri toʻlangan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda boʻlgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari boʻyicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari boʻyicha oʻz sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi boʻyicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga oʻtkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024-yildagi va 2025-yildagi davlat ulushi boʻyicha sof foydasining 100 foizini Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida oʻtkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar toʻlash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Andijon viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga;

Andijon viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 2-ilovaga;

viloyatning viloyat budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy toʻlovlar, shuningdek soliq boʻlmagan toʻlovlar boʻyicha belgilanadigan normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meʼyorlari boʻyicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini oʻrnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Andijon viloyati Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qoʻyilsin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinsin.

Viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida turgan budjet mablagʻlarining 2025-yilda yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori 13 427 million soʻm etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. 2025-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 30 406,9 million soʻm miqdorida belgilansin.

Shaharlar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamgʻarmalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablagʻlari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bunda, sogʻliqni saqlash muassasalarini hamda Soliq qoʻmitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari viloyatning viloyat budjetiga oʻtkazilishi munosabati bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamgʻarmalari ushbu mexanizm joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmidan kam boʻlmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda

qoʻshimcha mablagʻlarni shakllantirish tegishincha viloyat budjetining zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi;

viloyat, tuman va shaharlar budjetlarining zaxira jamgʻarmalari mablagʻlarini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi taʼminlansin.

Viloyat budjetining zaxira jamgʻarmasidan mablagʻlar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga oʻzgartirishlar kiritilmaydi.

8. Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga, jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga, koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazuvchi organlarda roʻyxatdan oʻtkazilishi lozim boʻlgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar 10-ilovaga, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalari 11-ilovaga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatʼiy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari 12-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari D.Karimov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov), viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

10. Barcha tuman va shahar hokimliklari, masʼul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va masʼuliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning toʻliq tushumini taʼminlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qoʻshimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida eʼtibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov)ga hududiy soliq organlari bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning toʻliq va toʻgʻri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni oʻz vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini oʻrnatish;

yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari boʻyicha doimiy tahlillar oʻtkazgan holda, soliqlarni toʻliq hisoblanishi va undirilishini taʼminlash hamda ushbu soliq toʻlovlari boʻyicha soliq qarzdorligiga yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻrish;

aylanmadan soliq turi boʻyicha soliq toʻlovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida toʻliq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini oʻrnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini oʻtkazish;

yer va mol-mulk soligʻining soliq bazasini oshirish, yaʼni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Andijon viloyat boshqarmasi (A.Xalimov), viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (A.Alimjonov) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (D.Madrahimov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (S.Qurbonov) va viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Raxmatullayev), Adliya boshqarmasi (O.Bozorov) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Yuldashev) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

17. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov)ga viloyatning viloyat budjeti xarajatlari parametrlarida advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashga hamda ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam” paketi xarajatlari uchun rejalashtirilgan mablag‘larni yil davomida haqiqatda shakllanadigan talablardan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga qayta taqsimlash vakolati berilsin.

18. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

19. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

20. Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi (U.Joʻrayev) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini toʻliq xatlovdan oʻtkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari boʻyicha shartnomalar tuzish choralarini koʻrsin hamda ushbu shartnomalar boʻyicha yigʻimlarni budjetga toʻlanishi ustidan doimiy nazorat oʻrnatsin.

21. Oʻzbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Andijon viloyati boshqarmasi (F.Tolipov) budjetdan ajratilgan mablagʻlarni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

22. Viloyat xokimligi matbuot kotibi-axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi M.Ibroximov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.Tadjibayev), Davlat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va toʻlov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa maʼlumotlarni eʼlon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan eʼtiboran kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (X.Omanov) hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari D.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va 2026−2027-yillarga maqsadli moʻljallar

T/r	Koʻrsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Maqsadli moʻljallar	
			2026-yil	2027-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd soʻm	103 847	118 620	135 111
2.	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda	5,4	6,2	6,3
3.	Isteʼmol narxlari indeksi, oʻtgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	7	5-6	5
4.	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	4,0	7,1	7,4
5.	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	4,2	4,3	4,4
6.	Chakana tovar aylanmasining oʻsish surʼati, foizda	7,1	7,6	8,1

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyatining viloyat budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Foyda solig‘i	281 191 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 242 729 360
3	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i	49 101 900
4	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	345 143 710
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	79 081 500
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	52 678 500
7	Davlat boji	195 063 000
8	Yig‘imlar	91 681 000
9	Jarimalar	115 483 000
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	7 599 000
JAMI		**2 459 751 970**
Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar		2 180 068 053
shundan, tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar		*292 010 000*
Hamma daromadlar		**4 639 820 023**

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻmda

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**4 639 820 023**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 354 672 137**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	81 484 000
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	203 663 886
1	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi**	**355 841 015**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**355 841 015**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	264 785
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
2	**Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**222 053 486**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**222 053 486**
	shundan:	
	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 258 174
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	**Sogʻliqni saqlash boshqarmasi**	**2 092 540 188**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 031 540 188**
	shundan:	

	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	4 436 550
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 478 647
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	324 849
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	61 000 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**83 833 073**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**83 833 073**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**3 895 238**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 895 238**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**132 655 463**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**132 655 463**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 333 096**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 333 096**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**11 512 861**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 512 861**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**55 936 848**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**55 936 848**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**88 628 604**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**81 728 604**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	28 600 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6 900 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 598 072**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 598 072**

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi**	**23 489 416**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**23 489 416**
	shundan:	
	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi hududiy boʻlinmasi xarajatlari	350 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 257 363 093**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 053 699 207**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	1 155 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 500 000
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	14 860 128
	Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	11 873 682
	Kadastr agentligi Andijon viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 550 737
	Tibbiy sugʻurta jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan transfertlar	1 009 888 160
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	203 663 886
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 881 107**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 881 107**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 286 097**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 286 097**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
16	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**6 824 871**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 824 871**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**9 822 662**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 822 662**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**15 620 812**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**15 620 812**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**106 256 637**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**106 256 637**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
20	**Hokimiyat**	**108 384 447**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**94 800 447**
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi boʻlimlari	4 501 975
	Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish oʻquv kursi	650 098
	Zaxira jamgʻarmasi	30 406 926
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	617 260
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi	5 432 040
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	14 759 189
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	21 418 720
	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	2 820 168
	Issiqlik taʼminoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	1 550 000
	Issiqlik taʼminoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qoʻllash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	180 000
	Koʻp kvartirali uylardagi lift uskunalarini taʼmirlash va yangilash	1 835 000
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	748 666
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	13 584 000
21	**Hokimiyat** (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**24 083 657**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**24 083 657**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	8 833 184

	Axborot-kutubxona markazlari	3 964 133
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	10 582 820
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**17 096 901**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**17 096 901**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 547 939**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 547 939**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy boshqarmasi**	**7 409 504**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 409 504**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Boshqa tashkilotlar**	**3 924 936**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 924 936**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

foizda

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Foyda solig‘i	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari*	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan soliq	Davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar	Yer uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat boji **	Jarima**	Yig‘imlar**	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 daromad kodlari bo‘yicha) tushumlar
1.	Xonobod shahar	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
2.	Andijon shahar	8%	100%	0%	0%	13%	50%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
3.	Andijon tuman	50%	100%	0%	0%	13%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%

4.	Baliqchi tuman	100%	100%	0%	0%	36%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
5.	Boʻston tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
6.	Buloqboshi tuman	60%	100%	0%	0%	35%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
7.	Jalaquduq tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
8.	Izboskan tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
9.	Ulugʻnor tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
10.	Qoʻrgʻontepa tuman	80%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
11.	Asaka tuman	90%	100%	0%	0%	4%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
12.	Marhamat tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
13.	Oltinkoʻl tuman	100%	100%	0%	0%	16%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
14.	Shahrixon tuman	100%	100%	0%	0%	9%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
15.	Paxtaobod tuman	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%
16.	Xoʻjaobod tuman	71%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	100%	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%

*Izoh: * Yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliqlar bundan mustasno*
*** Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ayrim davlat boji (3422103 daromad kodi boʻyicha), jarimalar (3430103 daromad kodi boʻyicha) va yigʻimlar (3422203 daromad kodi boʻyicha)ning ayrim turlari tuman (shahar) mahalliy byudjetlariga ajratma qilinishi mumkin*

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyati tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming soʻm

T/r	Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
1.	Xonobod shahar	50 360 000	68 324 119
2.	Andijon shahar	248 760 190	248 760 190
3.	Andijon tumani	152 010 040	152 010 040
4.	Baliqchi tumani	138 634 440	138 634 440
5.	Boʻston tumani	53 483 000	99 254 296
6.	Buloqboshi tumani	109 844 350	109 844 350
7.	Jalaquduq tumani	116 214 000	146 343 088
8.	Izboskan tumani	130 312 000	152 606 886
9.	Ulugʻnor tumani	52 199 000	81 534 072
10.	Qoʻrgʻontepa tumani	162 966 800	162 966 800
11.	Asaka tumani	189 625 460	189 625 460
12.	Marhamat tumani	111 803 000	136 197 554
13.	Oltinkoʻl tumani	131 220 960	131 220 960
14.	Shahrixon tumani	177 056 350	177 056 350
15.	Paxtaobod tumani	122 445 000	156 219 871
16.	Xoʻjaobod tumani	106 387 340	106 387 340

	Jami	**2 053 321 930**	**2 256 985 816**

* Tamaki mahsulotlari (import qilingan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyati viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming soʻm

T/r	Hududlar nomi	Summa*
1	Xonobod shahar	17 964 119
2	Boʻston tumani	45 771 296
3	Jalaquduq tumani	30 129 088
4	Izboskan tumani	22 294 886
5	Ulugʻnor tumani	29 335 072
6	Marhamat tumani	24 394 554
7	Paxtaobod tumani	33 774 871
	Jami	**203 663 886**

* Tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlarsiz.

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari aylanma kassa mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdorlari

ming soʻmda

№	Hududlar nomi	Summa
	JAMI	**24 000 000**
	Viloyat budjeti	**13 427 000**
1.	Xonobod shahri	344 000
2.	Andijon shahri	1 319 000
3.	Andijon tumani	700 000
4.	Baliqchi tumani	641 000
5.	Boʻston tumani	423 000
6.	Buloqboshi tumani	480 000
7.	Jalaquduq tumani	710 000
8.	Izboskan tumani	645 000
9.	Ulugʻnor tumani	381 000
10.	Qoʻrgʻontepa tumani	809 000
11.	Asaka tumani	871 000
12.	Marhamat tumani	650 000
13.	Oltinkoʻl tumani	593 000
14.	Shahrixon tumani	759 000

15.	Paxtaobod tumani	769 000
16.	Xoʻjaobod tumani	479 000

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
8-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyati shahar va tumanlar boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari uchun yer soligʻining bazaviy stavkasiga nisbatan Andijon viloyati xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan koeffitsiyentlarga muvofiq qoʻllanilishi lozim boʻlgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (soʻmda)*
1.	Andijon shahar	1,15	55 660 000
2.	Xonobod shahar	0,85	41 140 000
3.	Oltinkoʻl tumani	0,80	38 720 000
4.	Andijon tumani	0,85	41 140 000
5.	Baliqchi tumani	0,80	38 720 000
6.	Boʻston tumani	1,00	48 400 000
7.	Buloqboshi tumani	0,80	38 720 000
8.	Jalaquduq tumani	0,75	36 300 000
9.	Izboskan tumani	0,75	36 300 000
10.	Ulugʻnor tumani	1,00	48 400 000
11.	Qoʻrgʻontepa tumani	0,80	38 720 000
12.	Asaka tumani	0,85	41 140 000
13.	Marhamat tumani	0,75	36 300 000
14.	Shahrixon tumani	0,85	41 140 000
15.	Paxtaobod tumani	0,75	36 300 000

16.	Xoʻjaobod tumani	0,80	38 720 000

**Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq, Andijon viloyatida yuridik shaxslar uchun qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar boʻyicha yer soligʻining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 48,4 mln.soʻm miqdorida belgilangan. Qoʻllanilishi lozim boʻlgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsiyentga koʻpaytirish orqali aniqlanadi.*

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
9-ilova

2025-yil uchun Andijon viloyati shahar va tumanlar boʻyicha jismoniy shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari uchun yer soligʻining bazaviy stavkasiga nisbatan Andijon viloyati xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan koeffitsiyentlarga muvofiq qoʻllanilishi lozim boʻlgan soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (soʻmda)*
1.	Andijon shahar	1,15	498,0
2.	Xonobod shahar	0,85	368,1
3.	Oltinkoʻl tumani	0,80	346,4
4.	Andijon tumani	0,85	368,1
5.	Baliqchi tumani	0,80	346,4
6.	Boʻston tumani	0,70	303,1
7.	Buloqboshi tumani	0,80	346,4
8.	Jalaquduq tumani	0,75	324,8
9.	Izboskan tumani	0,75	324,8
10.	Ulugʻnor tumani	0,70	303,1
11.	Qoʻrgʻontepa tumani	0,80	346,4
12.	Asaka tumani	0,85	368,1
13.	Marhamat tumani	0,75	324,8
14.	Shahrixon tumani	0,85	368,1
15.	Paxtaobod tumani	0,75	324,8

16.	Xoʻjaobod tumani	0,80	346,4

*Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Andijon viloyatida yuridik shaxslar uchun qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar boʻyicha yer soligʻining bazaviy stavkasi 1 kv.m uchun 433 soʻm miqdori belgilangan. Qoʻllanilishi lozim boʻlgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffitsiyentga koʻpaytirish orqali aniqlanadi.

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Andijon viloyatining tumanlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boʻyicha 2025-yil uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar miqdori*

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori *(0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent)*	1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (soʻmda)**
1	Oltinkoʻl tumani	1,0	1 300 000
2	Andijon tumani	1,0	1 300 000
3	Baliqchi tumani	1,0	1 300 000
4	Boʻston tumani	1,0	1 300 000
5	Buloqboshi tumani	1,0	1 300 000
6	Jalaquduq tumani	1,0	1 300 000
7	Izboskan tumani	1,0	1 300 000
8	Ulugʻnor tumani	1,0	1 300 000
9	Qoʻrgʻontepa tumani	1,0	1 300 000
10	Asaka tumani	1,0	1 300 000
11	Marhamat tumani	1,0	1 300 000
12	Shahrixon tumani	1,0	1 300 000
13	Paxtaobod tumani	1,0	1 300 000
14	Xoʻjaobod tumani	1,0	1 300 000

** Yirik soliq to‘lovchilardan tashqari*
*** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar uchun soliq bazasi 1 kv.m uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat qishloq joylarda 1300 ming so‘m miqdori belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi mutlaq miqdorni koeffitsiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.*

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
11-ilova

2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	Binolar *(umumiy maydonning 1 kv.metri uchun)*	
			turar joy	noturar joy
1.	Andijon shahar	1,5	20 250	39 750
2.	Xonobod shahar	1,4	7 700	15 400
3.	Oltinko‘l tumani	1,2	6 600	13 200
4.	Andijon tumani	1,3	7 150	14 300
5.	Baliqchi tumani	1,2	6 600	13 200
6.	Bo‘ston tumani	1,0	5 500	11 000
7.	Buloqboshi tumani	1,2	6 600	13 200
8.	Jalaquduq tumani	1,1	6 050	12 100
9.	Izboskan tumani	1,1	6 050	12 100
10.	Ulug‘nor tumani	1,0	5 500	11 000
11.	Qo‘rg‘ontepa tumani	1,2	6 600	13 200
12.	Asaka tumani	1,3	7 150	14 300
13.	Marhamat tumani	1,1	6 050	12 100
14.	Shahrixon tumani	1,3	7 150	14 300
15.	Paxtaobod tumani	1,1	6 050	12 100
16.	Xo‘jaobod tumani	1,2	6 600	13 200

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qoʻllaniladi hamda koʻchmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) tatbiq etiladi.

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-3-046-1-0-K/24 -son qaroriga
12-ilova

2025-yil uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatʼiy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari stavkalari

№	Hududlar nomi	Bir oylik soliq stavkalari (soʻmda)			
		Chakana savdo:			Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari
		oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	dehqon bozorlarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bilan	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	
1.	Andijon shahar	800 000	200 000	200 000	200 000
2.	Xonobod shahar	400 000	100 000	100 000	100 000
3.	Oltinkoʻl tumani	300 000	80 000	80 000	80 000
4.	Andijon tumani	400 000	100 000	100 000	100 000
5.	Baliqchi tumani	300 000	80 000	80 000	80 000
6.	Boʻston tumani*	66 250	16 250	16 250	16 250
7.	Buloqboshi tumani	300 000	80 000	80 000	80 000
8.	Jalaquduq tumani	285 000	75 000	75 000	75 000
9.	Izboskan tumani	285 000	75 000	75 000	75 000
10.	Ulugʻnor tumani*	66 250	16 250	16 250	16 250
11.	Qoʻrgʻontepa tumani	300 000	80 000	80 000	80 000
12.	Asaka tumani	400 000	100 000	100 000	100 000
13.	Marhamat tumani	285 000	75 000	75 000	75 000

14.	Shahrixon tumani	400 000	100 000	100 000	100 000
15.	Paxtaobod tumani	285 000	75 000	75 000	75 000
16.	Xo‘jaobod tumani	300 000	80 000	80 000	80 000

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 383-moddasida belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalar doirasida belgilanadi.

**) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022-yildagi PF-287-son Farmoniga asosan 5-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat turiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalarini boshqa aholi punktlari uchun belgilangan minimal stavkaning to‘rtdan bir qismini to‘lashi belgilangan*